

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FAVQULODDA VAZIYATLAR VAZIRLIGI
FUQARO MUHOFAZASI INSTITUTI



FAN MUHOFAZA XAVFSIZLIK

НАУКА ЗАЩИТА БЕЗОПАСНОСТЬ

SCIENCE PROTECTION SECURITY

Ilmiy-amaliy jurnal

Научно-практический журнал

Scientific and Practical Journal

1(15), 2025

ISSN 2181-970X



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
FAVQULODDA VAZIYATLAR VAZIRLIGI
FUQARO MUHOFAZASI INSTITUTI**

**ISSN 2181-970X
№1(15), 2025**

**«FAN, MUHOFAZA, XAVFSIZLIK»
ILMIY-AMALIY JURNALI**

**«НАУКА, ЗАЩИТА, БЕЗОПАСНОСТЬ»
НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ**

**«SCIENCE, PROTECTION, SAFETY»
SCIENTIFIC AND PRACTICAL JOURNAL**

TOSHKENT - 2025



**FAN, MUHOFAZA, XAVFSIZLIK
НАУКА, ЗАЩИТА, БЕЗОПАСНОСТЬ
SCIENCE, PROTECTION, SAFETY**

Bosh muharrir:
X.N.Alibayev
Favqulodda vaziyatlar vaziri
o'rinbosari

Bosh muharrir o'rinbosari:
B.F.Xikmatov
Fuqaro muhofazasi instituti
boshlig'i, g.f.f.d. (PhD),
dotsent

Mas'ul kotib:
S.Aripov
Fuqaro muhofazasi
instituti bo'lim
yetakchi ilmiy
xodimi-professori,
i.f.f.d. (PhD),
dotsent

Texnik muharrir:
S.D.Najimov
Fuqaro muhofazasi
instituti Tahririyot-
noshirlik bo'limi
boshlig'i

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI:

K.N.Abdullabekov - O'zFA, Seysmologiya instituti bo'lim boshlig'i, f.-m.f.d., akademik;

Sh.N.Kurbonboyev - Yong'in xavfsizligi va favqulodda vaziyatlar muammolari ilmiy-tadqiqot instituti boshlig'i o'rinbosari, t.f.d. (DSc), professor;

K.D.Salyamova - O'zFA Mexanika va inshootlar seysmik xavfsizligi instituti bosh ilmiy xodimi, t.f.d., professor;

R.R.Nurmamatova - Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi Xodimlar malakasini oshirish markazi kafedra mudiri, t.f.d. (DSc), dotsent;

T.D.Abdulxayev - Fuqaro muhofazasi instituti kafedra katta o'qituvchisi k.f.d. (DSc);

S.M.Djurayev - Yong'in xavfsizligi va favqulodda vaziyatlar muammolari ilmiy-tadqiqot instituti boshlig'i, t.f.f.d. (PhD), professor;

O.R.Yuldashev - Fuqaro muhofazasi instituti kafedra professori, t.f.n., professor;

B.Y.Kurbanov - Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi bo'lim boshlig'i, t.f.f.d. (PhD), dotsent;

N.A.Nishonov - O'zFA Mexanika va inshootlar seysmik xavfsizligi instituti katta ilmiy xodimi, laboratoriya mudiri t.f.f.d. (PhD);

Sh.M.Narziyev - Renessans ta'lim universiteti O'quv-uslubiy boshqarma bo'lim boshlig'i, t.f.f.d. (PhD), dotsent;

A.A.Xoijiyev - "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti kafedra mudiri t.f.f.d. (PhD), dotsent;

A.V.Lityaga - FVV Akademiyasi kafedra boshlig'i, t.f.f.d. (PhD), dotsent;

M.A.Sherbayev - Fuqaro muhofazasi instituti O'quv-uslubiy bo'lim boshlig'i, t.f.f.d. (PhD), dotsent;

N.N.Nazarova - Fuqaro muhofazasi instituti kafedra professori, t.f.f.d. (PhD), dotsent;

D.T.Sagatov - Fuqaro muhofazasi instituti kafedra dotsenti, f.f.f.d. (PhD), dotsent;

G.A.Bimurzayev - Xavfli geologik jarayonlarni kuzatish xizmati boshlig'i, g.-m.f.f.d. (PhD);

X.N.Yangiboyev - Fuqaro muhofazasi instituti Ilmiy-tadqiqot ishlarini muvofiqlashtirish va innovatsiyalar bo'limi boshlig'i, t.f.f.d. (PhD);

A.R.Mirzayev - Fuqaro muhofazasi instituti kafedra dotsenti f.f.f.d. (PhD);

X.G.Azimov - Fuqaro muhofazasi instituti kafedra katta o'qituvchisi t.f.f.d. (PhD).

Jurnal 2018-yil ta'xis etilgan, bir yilda ikki marta nashr etiladi.

Muassis - O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Fuqaro muhofazasi instituti.

Jurnal ommaviy axborot vositasi sifatida O'zbekiston matbuot va axborot agentligida 2018-yil 26-oktabrda ro'yxatga olingan. Davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi bo'yicha 0997-raqamli guvohnoma berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining qarori bilan texnika fanlari bo'yicha dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnalning elektron nusxasi Institutning rasmiy sayti (fvvfmi.uz) ga joylashtiriladi.

© "Fan, muhofaza, xavfsizlik" ilmiy-amaliy jurnal.

© Fuqaro muhofazasi instituti, 2025.



UO'K 351.862

EPIDEMIOLOGIK FAVQULODDA VAZIYATLARNI YUZAGA KELTIRUVCHI KASALLANISHLAR VA ULAR TARQALISHINING OLDINI OLISH CHORA-TADBIRLARI

Abdug'opurov E.G'.

(Favqulodda vaziyatlar vazirligi Fuqaro muhofazasi instituti)

Saidkasimova N.S.

(Toshkent tibbiyot akademiyasi)

Annotatsiya. *Epidemiologik favqulodda vaziyatlarni yuzaga keltiruvchi kasallanishlar, aholi orasida o'ta xavfli yuqumli kasalliklarni tarqalishi hamda kasallanish to'g'risidagi ma'lumotlar asosida hamda aholining kasallanganligini tavsiflovchi epidemiologik kattaliklar, kasallanish ko'rsatkichlarda ifodalanishi orqali aholi va hududlarda qisqa vaqt ichida oldindan belgilangan rejalar asosida, epidemiologik favqulodda vaziyatlardan muhofazalash tadbirlarini olib borish va epidemiologik favqulodda vaziyatlarning salbiy oqibatlarini kamaytirish, yuzaga kelganda bartaraf etish bilan bog'liq kompleks chora-tadbirlarni samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *Epidemiologik favqulodda vaziyat, o'ta xavfli yuqumli kasalliklar, aholi, hududlar, salbiy oqibatlar, muhofazalash, samaradorlik, tavsiyalar.*

Аннотация. *Заболевания, вызывающие чрезвычайные эпидемиологические ситуации, распространение особо опасных инфекционных заболеваний среди населения, и на основе данных о заболеваемости, а также эпидемиологических показателей, характеризующих заболеваемость населения, путем выражения заболеваемости в показателях, на основании заранее определенных планов среди населения и регионов в короткие сроки, проведение защитных мероприятий от чрезвычайных эпидемиологических ситуаций даются рекомендации по снижению негативных последствий чрезвычайных эпидемиологических ситуаций и повышению эффективности комплексных мер по их ликвидации в случае возникновения.*

Ключевые слова: *Эпидемиологическая чрезвычайная ситуация, особо опасные инфекционные заболевания, население, регионы, негативные последствия, защита, эффективность, рекомендации.*

Abstract. *Diseases that cause epidemiological emergency situations, the spread of highly dangerous infectious diseases among the population, and based on the data on the incidence, as well as the epidemiological parameters describing the morbidity of the population, by expressing the incidence in indicators, on the basis of pre-determined plans in the population and regions in a short period of time, carrying out protective measures against epidemiological emergency situations and recommendations are given to reduce the negative consequences of epidemiological emergency situations and increase the effectiveness of comprehensive measures related to their elimination in case of occurrence.*

Key words: *Epidemiological emergency, acute infectious diseases, population, regions, negative consequences, protection, effectiveness, recommendations.*

Kirish. Aholi va hududlarni epidemiologik favqulodda vaziyatlardan muhofazalash, favqulodda vaziyatlar hududida insonlarda uchraydigan aksariyat kasallanishlarning sababi favqulodda vaziyatlar oqibatlarining bartaraf etish tadbirlari uzoq muddat talab etishi, favqulodda vaziyat sodir bo'lgan hududdan

evakuatsiya qilinganda aholining bir-birlariga bevosita yaqin bo'lishi, aholini yuqumli kasalliklar tarqalishi yuzasidan oldindan muhofazalanmaganligi, ichimlik suv ta'minoti, oqova suv tizimi, elektr tarmoqlari, sanitariya-gigiyena infrastrukturasi talab darajasida tashkil etilmaganligi yoki umumiy miqdori va qo'llash jadalligiga mos kelmasligi, aholining ko'chib yurishi bunda ko'chirilgan aholi o'rtasida ham mahalliy aholi o'rtasida ham infeksiyalarini paydo bo'lishi. Zaruriy ta'minot zaxirasi, oziq-ovqat, ichimlik suvi, zaruriy dori-darmon va sanitariya-gigiyenik vositalari yetishmasligi yoki ularning tarqatishning chegaralanganligi, shuningdek, fizik omillar, bakteriyalar, viruslar, parazit mikroorganizmlar, kasallangan va kasallik tarqatuvchi yovvoyi hayvonlar, kemiruvchilar hamda boshqa turli xil hasharotlarning aholi yashash maskanlarida keskin ravishda ko'payishi va buning oqibatida ulardan bevosita yoki uy hayvonlariga, keyin esa insonlarga yuqumli kasalliklarning yuqishi [9, 10]. Bunday salbiy holatlar epidemiologik vaziyatni kengayib, oqibatlarini kuchayishiga olib keladi. Kasallanishlarning aholi orasida keskin avj olishi va hududda epidemiologik vaziyatlarning keskinlashishi, inson organizmiga tirik kasallik qo'zg'atuvchilar kirishi va ma'lum bir shart-sharoitlarda ko'payishi, hamda tashqi muhitga qaytib chiqishi bilan bog'liq. Natijada kasallangan inson kasallik mikrobi (qo'zg'atuvchisi)ni boshqalarga tarqatuvchi-kasallik manbaiga aylanadi. Nafaqat bunda insonlar, uy hayvonlari, yovvoyi hayvonlar, kemiruvchilar, hashoratlar va boshqa jonzotlarning tirik yoki o'lgan jasadlari ham epidemiologik vaziyatning yuzaga kelishiga asos bo'ladi. Shuningdek, dunyo bo'yicha aholi migratsiyasi misli ko'rilmagan darajada tezlashgan va kuchaygan [6, 7, 8]. Qisqa fursat ichida nafaqat bir davlatdan ikkinchi bir davlatga, balki bir qit'adan ikkinchi bir qit'aga yetib borishi (havo yo'llari orqali), bir kunda bir necha davlatlar hududida bo'lish imkoniyati mavjud. Bundan tashqari, temir yo'l va avtotransportlar serqatnovligi ham aholi migratsiyasi geografiyasining kengayishiga olib kelmoqda [1].

Tabiiyki, aholining keng ko'lamdagi migratsiyasi respublikamiz hududiga ham chetdan, ayniqsa endemik hududlardan ayrim o'ta xavfli yuqumli kasalliklarni kirib kelishi va tarqalish xavfini yanada oshiradi [14].

Kasallanishlarni keltirib chiqaruvchi mikroorganizmlar, juda oddiy tuzilgan bo'lishiga qaramasdan boshqa tirik organizmlar kabi nafas oladi, oziqlanadi va ko'payadi. Kasallik qo'zg'atuvchilarining o'ziga xos xususiyatlaridan biri ular organizmga tushib ko'payganda o'zlaridan toksin (zaxar) ajratib chiqaradi va to'qimalar hujayralarining faoliyatini buzadi [15].

Kasallik qo'zg'atuvchilarning spetsifik xususiyatlari muayyan yuqumli kasallik mavjudligini belgilab beradi. Masalan, ich terlama mikrobi faqat ich terlama kasalligini keltirib chiqaradi. Demak har qanday yuqumli kasallik organizmga tirik spetsifik qo'zg'atuvchi kirishi va uning ko'payishi natijasida kelib chiqadi. Agarda viruslar ko'payishiga hech qanday to'siq bo'lmaganda edi, ular ajratib chiqargan zaharlar ta'sirida odamlar halok bo'lib ketgan bo'lar edi. Biroq inson organizmi mikroblarga qarshi kurashish, ya'ni ularni o'ldirish va ular tomonidan chiqarilgan zaharlarni neytrallash (zararsizlantirish) qobiliyatiga ega. Bu qobiliyat - yuqumli kasalliklarga nisbatan chidamlilik yoki immunitet

hisoblanadi. Immunitetning tug'ma va orttirilgan turlari farqlanadi [2, 5]. Tug'ma immunitetga ma'lum kasalliklarga chidamlilikni belgilab beradigan faqat ma'lum tur ya'ni hayvon yoki odamga xos bo'lgan nasldan-naslga o'tuvchi kasallikka chidamlilikka aytiladi. Masalan, cho'chqalar o'lati bilan faqat cho'chqalargina kasallanadi. Odamlar va hayvonlarning boshqa turlari bu kasallik bilan kasallanmaydi.

Umuman olganda, epidemiologik vaziyatlarni keltirib chiqaruvchi kasalliklarni tarqalishida uch muhim bular: kasallik manbai, yuqish yo'li, yuqtirishga moyil organizmdir [10, 11, 12].

Dunyoda paydo bo'layotgan yangi xavfli yuqumli kasalliklar ustidan nazorat olib borishi natijasida, hozirgi kunda oldingi avlodga ma'lum bo'lmagan 40 ga yaqin yangi yuqumli kasalliklar aniqlangan (Ebola, Marburg, Lassa, Machupa virusli gemorragik isitmalari, atipik pnevmoniya, parranda grippi, A/N1N1 grippi, Koronavirus va h.k.). Bu kasalliklarning haligacha qator epidemiologik xususiyatlari o'rganilmagan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. 1969-yilda ishlab chiqilgan Xalqaro sanitariya qoidalari (keyinchalik - XSQ) dastlab 6 ta karantin infeksiyalarini (o'lat, vabo, sariq isitma, chin chechak, qaytalama tif va toshmali tif) chetdan kirib kelishi va tarqalishining oldini olish masalalari kiritilgan bo'lsa, 1973 va 1981-yillarda ayrim o'zgarishlar kiritilgan XSQlarida epidemik vaziyatlar hisobga olinib hamda chin chechak kasalligining 1980 yilda dunyo bo'yicha batamom tugatilganligi e'lon qilinganidan so'ng, XSQlarida kiritilgan karantin yuqumli kasalliklar guruhiga kiruvchi kasalliklar 3 taga qisqartirilib, faqat o'lat, vabo va sariq isitma kasalliklari qoldirilgan [9].

Tadqiqot metodologiyasi. Epidemik vaziyatni baholash, xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan holatlar yuzasidan JSSTga xabar berish masalasi XSQda ko'rsatilgan. Unga muvofiq I-guruh yuqumli kasalliklar ro'yxatiga 4 ta yuqumli kasallik kiritilgan bo'lsa (chin chechak, yovvoyi poliomyelit virusi qo'zg'atgan poliomyelit, odamda yangi tip gripp virusi qo'zg'atgan gripp, og'ir o'tkir respirator sindrom), II-guruh yuqumli kasalliklar ro'yxatiga esa 10 ta yuqumli kasalliklar kiritilgan (vabo, o'pka o'lati, sariq isitma, virusli gemorragik isitmalar - Ebola, Lassa, Marburg, G'arbiy Nil isitmasi, milliy va regional xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan boshqa yuqumli kasalliklar, masalan Denge isitmasi, Rift-Valli isitmasi va meningokokkli infeksiya).

Agar biror bir davlatda I-guruhdagi yuqumli kasalliklar ro'yxatga olinsa, unda bu to'g'rida shu davlat to'g'ridan-to'g'ri Jahon Sog'liqni saqlash tashkiloti (keyinchalik - JSST)ga xabar berishi kerak. Boshqa holatlarda ham zudlik bilan xabar berish sxemasiga asosan yuqori tashkilotlarga xabar beriladi.

Xalqaro tibbiy-sanitariya qoidalari (keyinchalik - XTSQ-2005)da xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan favqulodda vaziyatlar, jumladan yuqumli kasalliklar bo'yicha JSST tomonidan norasmiy ma'lumotlar olinsa ham vaziyat sodir bo'lgan davlat shu vaziyatni tasdiqlashi yoki inkor (raddiya) etib, JSSTga xabar berishi kerak.



1-rasm. 2021-yil 4-fevral kuni Gvineya hukumati mamlakatda Ebola bezgagi epidemiyasi boshlanganini e'lon qildi. Mutaxassislarining ta'kidlashlaricha kasallikning inkubatsiya muddati 2 kundan 21 kungacha. Eboladan o'limning o'rtacha darajasi 50 foizni tashkil qiladi, kasallikning o'lim darajasi yuqish paytida 90 foizga yetadi.)

XTSQ-2005 bilan davlatlarda XTSQ bo'yicha milliy koordinatorlar tayinlanishi ko'rsatib o'tilgan va JSSTda XTSQ bo'yicha muloqotda bo'lish uchun maxsus aloqa punkti tashkil etilgan [9].

Bundan tashqari, XTSQ-2005 da JSSTga a'zo davlatlar xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda JSSTga xabar berish majburiyati yuklangan. Shuningdek, JSSTning Bosh direktoriga ro'y bergan Xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan "Favqulodda vaziyatlar" bo'yicha rasman e'lon qilish huquqi berilgan.

Respublikamiz hududiga o'ta xavfli yuqumli kasalliklarning chetdan kirib kelishining oldini olish maqsadida, respublika Davlat chegaralarining kesishgan joylarida, havo va temir yo'llari, suv portida sanitariya nazorat punktlari tashkil etilgan bo'lib, ular chegaradan o'tayotgan fuqarolarni, transport vositalari va yuklarni sanitariya (tibbiy) ko'rikdan o'tkazadi [1, 6].

Tahlil va natijalar. O'ta xavfli yuqumli kasalliklar o'zining o'ta yuquvchanligi, tez tarqalishi (epidemiya, pandemiya), yuqish yo'llarining "rang-barangligi", aksariyatining tabiiy o'choqlarga ega bo'lishi, kasallikning og'ir kechishi va o'lim ko'rsatkichining yuqoriligi bilan ajralib turadi. Bundan tashqari o'ta xavfli yuqumli kasallik qo'zg'atuvchilari ommaviy qirg'in qurollaridan biri bo'lgan biologik qurol sifatida ishlatilishi ham mumkin.

Epidemiologik favqulodda vaziyatlarning yuzaga kelishining asosiy sabablari quyidagilar hisoblanadi.

Biologik omil epidemik jarayonning sababchisi sifatida. Kasallik manbai (rezervuar) kasallik qo'zg'atuvchilarining tur sifatida tabiatda saqlanishi uchun zarur yashash muhiti;

- obligat-patogen va shartli patogen kasallik qo'zg'atuvchilar qo'zg'atgan antropoz kasalliklarda epidemik jarayonning rivojlanish sxemasi;

- kasallik qo'zg'atuvchilar populyatsiyasining virulentlik bo'yicha geterogenligi (xilma-xilligi) va xo'jayin organizmining kasallikka moyilligining

turli darajada bo'lishi kasallikning har xil ko'rinishlarda namoyon bo'lishini ta'minlovchi omil sifatida (kasallikning o'tkir, surunkali, tipik va atipik ko'rinishlarining epidemiologik ahamiyati);

- kasallikning turli davrlarida bemorlarning epidemiologik jihatdan xavfliligi;

- yuqumli kasallik belgisiz kechadigan turlarining epidemiologik ahamiyati;

- hayvonlarning odamlar uchun patogen bo'lgan obligat-parazitlari qo'zg'atgan zoonoz kasalliklarda epidemik jarayonning rivojlanish sxemasi;

- zoonoz kasalliklarda kasallik manbaining tavsifi;

- odamlar va hayvonlar uchun fakultativ parazitlar keltirib chiqargan kasalliklarda epidemik jarayonning rivojlanish sxemasi.

Ijtimoiy omillar - epidemik jarayonni rivojlantiruvchi omil sifatida:

- turli guruhlariga taalluqli odamlar hayoti, mehnat faoliyatining ahamiyati;

- aholi zichligi, turli yoshlardagi aholi guruhlari;

- migratsiya jarayonining ahamiyati;

- tibbiy xizmat darajasining ahamiyati;

- uyushgan jamoalarning tuzilishi va ularning ta'siri.

Tabiiy omillar:

- tabiiy omillarning (quyosh nuri, namlik, muhit) odamlar organizmi chidamliligiga va kasallik qo'zg'atuvchilarning ko'payishi tezligiga bevosita ta'siri;

- tabiiy omillarning (ob-havo, landshaft, muhit) epidemik jarayon rivojlanishiga bevosita ta'siri.

O'ta xavfli kasalliklarga qarshi olib borilayotgan keng qamrovli tadbirlarga qaramasdan ushbu kasalliklar hozirgi kunda ham dunyoning turli mintaqalarida uchrab turibdi. Jumladan, o'lat kasalligi tabiiy o'choqlar mavjud bo'lgan joylarda, xususan, AQSH, Peru, Mo'g'uliston, Hindiston va bir qator Afrika davlatlarida qayd etib kelinmoqda.

O'ta xavfli kasallikdan yana biri bo'lgan Vabo kasalligidir. Vabo dastlab Hindistonda - Gang daryosi vodiysida 1816-yilda paydo bo'lgan. Mazkur joyda insonlarning turmush sharoiti og'ir bo'lganligi uchun aholining ko'p qismi boshqa mamlakatlarga keta boshlagan. Buning natijasida vabo Yevropaga, asta-sekinlik bilan butun dunyoga, 1819-yilda Birma, 1820-yilda Yava va Borneo oroliga va Xitoy davlatiga, 1821-yil Eron davlatiga, 1822-yilda esa Yaponiya va Rossiya davlatlari hududlariga tarqalib, ushbu kasallik ko'plab aholining o'limiga sabab bo'lgan.

1823-1825-yillar mobaynida vabo epidemiyasi Rossiya davlati hududida 55 marta qayd etilgan. Bizning turkiston o'lkamizga vabo Eron va Afg'oniston davlatlaridan o'tgan. 1817-yildan 1965-yilgacha yer yuzida vaboning 6 ta pandemiyasi qayd etilgan bo'lsa, 1965-yildan shu kunga qadar vaboning 7-pandemiyasi davom etib kelmoqda [9].

2023-yilda vabo bilan kasallanganlar soni 2022-yilga nisbatan 13 foiz, ushbu xastalik tufayli o'lim holati esa 71 foiz o'sgan. Bu haqda Jahon sog'liqni saqlash

tashkiloti bosh direktori Tedros Adanom Gebreyesus Jenevada bo‘lib o‘tgan matbuot anjumanida ma’lum qilgan.

1-jadval

Yer yuzida vaboning qayd etilgan pandemiyasi

| Pandemiyalar | Yillar | Qayd etilgan qit’alar |
|--------------|-----------|---------------------------------|
| I | 1817-1823 | Osiyo, Afrika, Yevropa |
| II | 1826-1837 | Osiyo, Afrika, Yevropa, Amerika |
| III | 1846-1862 | Osiyo, Afrika, Yevropa, Amerika |
| IV | 1864-1875 | Osiyo, Afrika, Yevropa, Amerika |
| V | 1883-1896 | Osiyo, Afrika, Yevropa |
| VI | 1902-1925 | Osiyo, Afrika, Yevropa |
| VII | 1965 | Osiyo, Afrika, Yevropa |

Qayd etilishicha, garchi oldini olish mumkin, davolanish oson bo‘lsada, o‘tgan yil vabo 4000 kishini hayotdan olib ketdi. Mojarolar, iqlim o‘zgarishi, xavfli suv va sanitariya sharoiti, qashshoqlik va majburiy ko‘chirilish epidemiyalar urchishiga sabab bo‘lmoqda. Binobarin, mintaqalarda vaziyat turlicha: Yaqin Sharq va Osiyoda salbiy holat pasayishi kuzatildi, Afrikada esa kasallanish ikki barobar ko‘paygan.

JSST rahbari so‘zlariga ko‘ra, 2024-yil boshidan buyon 342 mingdan ortiq holatda 2400 kishi vafot etgan. 22 mamlakatda faol epidemiya davom etgan. Gebreyesus vaboga qarshi vaksina taqchilligiga ham e’tibor qaratib, preparat ishlab chiqarishni ko‘paytirishga chaqirgan.

O‘tgan yil vaboga qarshi taxminan 36 mln. doza inyeksiya ishlab chiqarilgan. Bu kerakli miqdorning atigi 50 foizini tashkil etadi [13].



1-rasm. 2021-yil Afrikada Vabo bilan kasallangan bemor tibbiyot xodimlari tomonidan shifoxonaga olib ketilmoqda. (Tadqiqotchilarning ma’lumotlariga ko‘ra, har yili 2,9 mln. kishi vabo bilan kasallanadi va 95 ming kishi vafot etadi)

Respublikamiz hududidagi ochiq suv havzalaridagi vabo vibriyonlarining doimiy serkulyatsiyasi, bu kasalliklarning mahalliy kasallik holatlari sifatida qayd etilishiga olib kelishi mumkin.

Sariq isitma kasalligining respublikamiz hududida qayd qilinishi va tarqalishi, ya'ni epidemiologik jarayonning namoyon bo'lishi uchun shart-sharoitlar bo'lmasada, bu kasallikning chetdan, ya'ni endemik o'choqlardan kirib kelish xavfi mavjud.

Favqulodda vaziyatlarning turlari va yuzaga kelishining asosiy sabablari sifatida quyidagi kasalliklar epidemiologik favqulodda vaziyatlarga olib kelishi mumkin:

- o'lat, vabo, sarg'ayma isitma kabi siyrak uchraydigan kasalliklarni keltirib chiqargan alohida xavfli infeksiyalar;

- odamlarda uchraydigan yuqumli kasalliklar rikketsiyalar - epidemik toshmali terlama, Bril kasalligi, Ku-isitma;

- zoonoz infeksiyalar - Sibir yarasi, quturish;

- virusli infeksiyalar - SPID;

- aniqlanmagan etiologiya bilan guruh bo'lib kasallanish - 20 kishi va undan ortiq;

- tashxisi aniqlanmagan bezgak kasalligi - 15 kishi va undan ortiq;

- o'lim yoki kasallanish darajasi o'rtacha statistik darajadan 3 baravar va undan ortiq bo'lgan vaziyat [3, 5].

Respublikamizda Qrim-Kongo gemorragik isitmasi, kuydirgi va quturish kabi zoonoz kasalliklar bo'yicha ham murakkab epizootik va epidemik vaziyat saqlanib qolmoqda.

Chin chechak kasalligi dunyo bo'yicha tugatilgan bo'lsada, Afrika qit'asining ayrim davlatlari hududlarida klinik ko'rinishi jihatidan chin chechak kasalligidan farqlash qiyin bo'lgan maymun chechagi kasalligi ro'yxatga olinmoqda.

Maymun chechagi, shuningdek qator virusli gemorragik isitma kasalliklari (Marburg, Lassa, Ebola, Boliviya gemorragik isitmalari va h.k) respublikamiz hududiga faqat chetdan kirib kelishi mumkin.

Respublikamizda o'ta xavfli yuqumli kasalliklarni chetdan kirib kelishi va tarqalishining oldini olish maqsadida qo'shni davlatlar (Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston Respublikalari va Afg'oniston davlati) chegaralarining kesish joylarida sanitariya nazorat punktlari tashkil etilgan. Bu sanitariya nazorati punktlarida chegarachilar, bojxona, ichki ishlar, veterinariya xizmatlari xodimlari bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsatadi. Bundan tashqari havo, temir yo'l vokzallari va suv transportlari portida ham sanitariya nazorat punktlari tashkil etilgan. Barcha sanitariya nazorat punktlarida chetdan kirib kelayotgan xorijiy va respublikamiz fuqarolarini tibbiy ko'rikdan o'tkazish, karantin, o'ta xavfli va boshqa yuqumli kasalliklarni aniqlash, vaqtinchalik izolyatsiya qilish va birlamchi epidemiyaga qarshi chora-tadbirlarni o'tkazish uchun shart-sharoitlar yaratilgan [7, 9].

Epidemiologik vaziyat yomonlashgunga qadar fuqarolar tomonidan amalga oshiriladigan harakatlar - bu yuz berishi mumkin bo'lgan epidemiologik favqulodda vaziyatlarning oqibatlarining oldini olish yuz berganda talafotlarning kamaytirishda muhim ahamiyatga ega va ular quyidagilar:

- epidemiologik vaziyat to'g'risida ommaviy axborot vositalari yordamida ma'lumotlar olish;

- favqulodda epidemiyaga qarshi komissiyaning (FEKK) qarori talablarini so'zsiz bajarish;

- epidemiologik vaziyat yomonlashgan hudud va insonlar ommaviy to'planadigan joylarga bormaslik;

- to'yimli va vitaminli ovqatlarni iste'mol qilish;

- sog'lom turmush tarzini yuritish va muntazam jismoniy mashg'ulotlar bilan shug'ullanish;

- muntazam ravishda profilaktik tibbiy ko'riklardan o'tib turish;

- yuqumli kasalliklar bilan kasallanganlik holatlariga gumon tug'ilganda, hududiy davolash-profilaktika muassasalariga murojaat qilish;

- epidemiyaga sabab bo'lgan yuqumli kasallik to'g'risidagi ma'lumotlar bilan tanishish, uning yuqish yo'llari va profilaktikasi bo'yicha choralarni ko'rish;

- JSST, FEKK mutaxassislarining tavsiyasi va ko'rsatmasi asosida, immunoprofilaktika tadbirlarini qatnashish.

Hozirgi paytda yuqumli kasalliklarning oldini olish uchun vaksinalarning quyidagi turlari ishlatiladi:

- tirik vaksinalar;

- jonsizlantirilgan vaksinalar;

- kimyoviy vaksinalar;

- anatoksinlar [2, 4, 8].

Epidemiologik vaziyat yomonlashganda amalga oshiriladigan harakatlar jumladan o'ta xavfli yuqumli kasallik aniqlansa quyidagi qoidalarga amal qilish talab etiladi:

- zararlanganlarning shaxsini aniqlash. O'ta xavfli yuqumli kasallik o'chog'iga tushgan shaxslarning ismi-sharifi, manzili va telefon raqamini yozib olish. Zararlash vositasi tushgan joydan qancha masofada bo'lganligi va zararlanish joyida qancha vaqt bo'lganligini ko'rsatish;

- o'ta xavfli yuqumli kasallik aniqlangan joyni qo'riqlashni yo'lga qo'yish va unga amal qilish.

- o'ta xavfli yuqumli kasallik aniqlangan joydagi barcha buyumlar, shu jumladan, zararlangan kiyimlar ham o'ta xavfli yuqumli kasallik manbai hisoblanishi;

- o'ta xavfli yuqumli kasallik o'chog'ida tibbiyot xodimlari, qutqaruvchilar va huquq-tartibot organlari faoliyat olib borishadi. Bunda ular tomonidan sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya etilishi;

- kasallik belgilari kechikib paydo bo'lishi mumkin. Jabrlanuvchilarda kasallikning dastlabki belgilari ma'lum vaqt o'tgandan keyin ham paydo bo'lishi mumkin. Shuning uchun zararlanish kuni va zararlanish o'chog'ida ishlaganlarning aniq hisobini olib borish;

- tananing ochiq qismlarini dezinfeksiyalovchi vositalar yordamida, buning imkoni bo'lmagan hollarda sovunli suv yordamida sanitar ishlovdan o'tkazish;

- kasallik belgilari kechikib paydo bo'lishi sababli zararlovchi shaxs ham zararlanuvchi shaxs ham voqea joyidan dezinfeksiyadan o'tmagan holda chiqib ketishini oldini olish choralarini belgilash;

- zararlanish zonasida ishlayotgan barcha xodimlar (huquq-tartibot organlari, qutqaruvchilar) o'zlarining harakatlarini sanitariya epidemiologiya nazorati markazi xodimlari bilan kelishgan holda olib borishlari lozim.

Jabrlanganlar bilan ishlashda, o'ta xavfli yuqumli kasallikning tabiiy holda paydo bo'lgan yoki biologik vositalar (biologik qurol) ishlatilishi oqibatida kelib chiqqanligini aniqlash muhim ahamiyatga ega.

O'ta xavfli yuqumli kasallik biologik hujum (terroristik harakat) oqibatida yuzaga kelganda bu joyga tajribali xodim va mutaxassislar - vrachlar, veterinarlar, o'rta va kichik tibbiyot xodimlari (feldsherlar, hamshiralar, sanitarlar, laborant va boshqalar), mikrobiologlar, huquq-tartibot organlari, qutqaruvchi xodimlar jalb qilinadi. Bu toifadagi mutaxassislar hujum uyushtirilgan obyekt turidan (odamlar, hayvonlar yoki o'simliklar) qat'iy nazar bir vaqtda jalb etiladi.

O'ta xavfli yuqumli kasallik taxmin qilingan hududga kirganda asosiy vazifa shaxsiy tarkibni muhofaza qilish hisoblanadi va bu vazifa qutqaruv guruhi komandirining zimmasiga yuklatiladi.

Zararlanish zonasiga kirishdan oldin qutqaruvchi lozim bo'lgan shaxsiy muhofaza tadbirlarini bajarishi lozim. Bu tadbirlarga o'latga qarshi himoya kostyumi, gazniqob yoki respirator kiyish, profilaktika maqsadida antibiotiklar yoki boshqa zarur dori vositalari qabul qilish kiradi.

Qutqaruvchilar o'ta xavfli yuqumli kasallik tarqalgan hududga bu joydagi ko'p miqdordagi jabrlanuvchilarga yordam ko'rsatish tadbirlarini tashkil etish uchun jalb qilinishi mumkin.

Epidemiologik vaziyatlarning oldini olish va ularni kamaytirishga, ular yuqish yo'llari va omillariga ta'sir ko'rsatishga va texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlar bilan bog'liq bo'lgan epidemiologik asoratlar oqibatlarini tugatishga qaratilgan profilaktik va o'choqli dezinfeksiya, dezinseksiya, deratizatsiya, epidemiyaga qarshi tadbirlar o'tkazilishi aholi va hududlarni epidemiologik favqulodda vaziyatlardan muhofazalanishda asosiy vazifa hisoblanadi. Shuningdek, shaxsiy tarkibning dushda sovunli suvda yuvinishi ham muhim dezinfeksiya tadbirlaridan biri hisoblanadi.

Kiyimlar qaynatish yoki xlorli eritmaga solib qo'yish yo'li bilan dezinfeksiya qilinish ham mumkin. Kasallikning qayta tarqalishining oldini olish maqsadida kasalliklarni qayta tarqalishiga vositachilik qiluvchi hashoratlar va kemiruvchilarga qarshi kurashish uchun tegishli pestitsidlar va insektitsidlar zaxirasini yaratish muhim ahamiyatga ega.

O'ta xavfli yuqumli kasalliklar gumon qilinganda va qayd qilinganda, qo'llaniladigan 3 xil jamlamadan foydalaniladi va bu jamlamalar har bir davolash-profilaktika muassasasida yil davomida ishga tayyor holda turishi shart:

- maxsus shaxsiy himoya vositalari jamlamasi;
- bemorlardan (murdalardan) laboratoriya tekshirish o'tkazish maqsadida namuna olish jamlamasi;

- shoshilinch shaxsiy profilaktika uchun dori-darmonlar jamlamasi.

Jamlanma tarkibida - kombinezon yoki pijama, katta qiyiq ro‘mol (kapyushon) yoki qalpoq, o‘latga qarshi xalat, paxta-dokali niqob, himoya ko‘zoynagi, tibbiy rezina qo‘lqop, sochiq, paypoq, shippak, etik (rezinali), talk, ko‘zoynak oynasiga ishlov berish uchun sovun yoki qalam.

Patologoanatomik markaz va sud tibbiyot ekspertizalarida yana qo‘shimcha ravishda kleyonkali etak (fartuk) va kleyonkali yengcha hamda bir juft anatomik qo‘lqop ham bo‘lishi kerak.

Maxsus shaxsiy himoya vositalari (MSHHV) tibbiyot xodimlarini ayrim yuqumli kasalliklar, shu jumladan I-II guruh infeksiyalar qo‘zg‘atuvchilarini havotomchi, muloqot va qon so‘ruvchi bo‘g‘imoyoqlilar orqali yuqishidan muhofaza etadi.

Shaxsiy himoya vositalari (o‘latga qarshi kostyum) jamlamasini to‘liq nomini “maxsus shaxsiy himoya vositalari jamlamasi” (MSHHVJ) deb atash maqsadga muvofiqdir. Chunki, birinchidan bu jamlama tarkibi faqat o‘latga qarshi kostyumdan iborat bo‘libgina qolmasdan, uning tarkibida boshqa himoya vositalari (niqob, ko‘zoynak, etik, qo‘lqop va b.) ham mavjud, ikkinchidan bu shaxsiy himoya vositalari nafaqat o‘latdan himoyalani uchun, balki bir qator boshqa o‘ta xavfli yuqumli kasalliklardan (vabo, virusli gemorragik isitmalar, maymun chechagi, parranda grippi va h.) himoyalani ham shaxsiy himoya vositalari sifatida foydalaniladi.

MSHHV quyidagilardan tarkib topgan: pijama yoki kombinezon, paypoq, charm shippak, o‘latga qarshi xalat, tibbiy qalpoq yoki katta qiyiq ro‘mol (kapyushon), rezina qo‘lqop, rezina etik, paxta-dokali niqob, ko‘zoynak, sochiq.

2-jadval

Maxsus shaxsiy himoya vositalari (MSHHV)turlarining tarkibi [9].

| t/r | MSHHV tarkibi | MSHHV turlari (tiplari) | | | |
|-----|---|-------------------------|----|---------------|--|
| | | I | II | III | IV |
| 1 | Kombinezon yoki pijama | + | + | + | + |
| 2 | Paypoq | + | + | + | + |
| 3 | Charm shippak | + | + | + | + |
| 4 | Rezina etik | + | + | Rezina kalish | - |
| 5 | Tibbiy qalpoq yoki katta ro‘mol (kapyushon) | + | + | + | Tibbiy qalpoq yoki kichik qiyiq ro‘mol |
| 6 | O‘latga qarshi xalat | + | + | + | Tibbiy xalat |
| 7 | Paxta-dokali niqob | + | + | - | - |
| 8 | Ko‘zoynak | + | - | - | - |
| 9 | Rezina qo‘lqop | + | + | + | - |
| 10 | Sochiq | + | + | + | - |

Xulosa. Yuqoridagilardan shuni xulosa qilish mumkinki, epidemiologik favqulodda vaziyatlarni yuzaga keltiruvchi kasallanishlarni va ushbu kasallanishlarni tarqalishini oldini olish chora tadbirlarini olib borish orqali aholi va hududlarni epidemiologik favqulodda vaziyatlardan muhofazalash, sodir

bo'lganda epidemiologik barqarorlikka erishish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish muhim hisoblanadi, jumladan:

- epidemiologik vaziyatlarni prognozlashda tuman, shahar, respublika miqyosida favqulodda vaziyatning, hududiy joylashuvi va boshqa mavjud omillarni inobatga olgan holda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan epidemik vaziyatni, jabrlanuvchilar sonining eng yuqori miqdorini bashoratlashda raqamlashtirish dasturlaridan keng foydalanish;

- epidemik tadbirlarni olib borish uchun shtabning umumiy faoliyatini rejalashtirish va oldindan tashkillashtirish, shuningdek, ko'chma boshqaruv punktlarini joylashtirish uchun qulay hududlarni belgilash;

- ro'y bergan favqulodda vaziyatlar, ularning rivojlanish ko'lamlari va kechishi, keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan oqibatlari, ularni bartaraf etishga doir ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risidagi axborotlarni to'plash, almashish va ular to'g'risida o'z vaqtida xabar qilish uchun hududlarda tashkil etilgan tezkor guruhlarining aloqasining o'z vaqtida va sifatli tashkil etish;

- har qanday yuqumli kasalliklarning paydo bo'lishi, avj olishi va tarqalishini omillari bo'lgan, kasallik yuqtiradigan manba, kasallikning yuqish hamda tarqalish yo'llari, kasallikka beriluvchan (immuniteti past, kasalliklarga qarshi emlanmagan shaxslar) insonlar bo'lishini oldini olishga qaratilgan manzilli va aniq chora-tadbirlarni o'tkazish;

- epidemiologik favqulodda vaziyatni bartaraf etish uchun moddiy resurslar zaxiralarning namunaviy nomenklaturasi ro'yxatiga muvofiq, Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimida bajariladigan funksiyalar, hududning o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, sodir bo'lishi mumkin bo'lgan tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar prognozini inobatga olgan holda favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun moddiy resurslar zaxiralari hajmini va nomenklaturasi ro'yxatiga asosan yetarli yashash joylari, issiq kiyim, ko'rpa, toza ichimlik suvi, sanitariya-gigiyena vositalari, dori-darmon (o'ta xavfli kasalliklar, o'tkir respirator va rotavirus infeksiyalarini oldini olish uchun) zaxiralari yaratish;

- bir-biridan ma'lum masofada uzoqlikda bo'lgan joylarda, birdaniga bir necha joylarda epidemiyaga qarshi kurashish tadbirlarini olib borish, aholi o'rtasida yuqumli kasalliklar paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan rejimli cheklash choralari ko'rish, favqulodda vaziyatlar ko'lamiga qarab kuzatish (observatsiya) yoki karantin choralari ko'rish;

- normal sanitariya sharoitlarini yaratish, shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish, aholining doimiy ravishda, profilaktik emlash kalendari doirasida sil, qizamiq, epid parotit, qizilcha, VGV, shol, bo'g'ma, ko'k yo'tal, qoqshol, XIB va boshqa rotavirus infeksiyalarga qarshi emlash ishlarini o'tkazish;

- karantin rejimi hududidan asosiy chiqish joylariga soqchilar qo'yib, aylanasi bo'ylab qurshab, falokat o'chog'ini batamom ajratish, kirish va chiqish keskin cheklanib, oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashning maxsus tizimini joriy etish;

- aholining ichimlik suv ta'minoti, oqova suv tizimi, elektr tarmoqlari, sanitariya-gigiyena infrastrukturasi talab darajasida tashkil etish, kasallangan va kasallik tarqatuvchi yovvoyi hayvonlar, kemiruvchilar hamda boshqa turli xil hasharotlarning aholi yashash maskanlarida keskin ravishda ko'payishi va buning oqibatida ulardan bevosita yoki uy hayvonlariga, keyin esa insonlarga yuqumli kasalliklarning yuqishini oldini olish

- qisqa fursat ichida nafaqat bir davlatdan ikkinchi bir davlatga, balki bir qit'adan ikkinchi bir qit'aga yetib borishi (havo yo'llari orqali), bir kunda bir necha davlatlar hududida bo'lish imkoniyati mavjud, bundan tashqari, temir yo'l va avtotransportlar serqatnovligi ham aholi migratsiyasi geografiyasining kengayishini inobatga olgan holda vazifalarni belgilash zarur hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 29-avgust kundagi "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi 265-I-sonli Qonuni.

2. O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 26-avgust kundagi "Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to'g'risida"gi 393-sonli Qonuni.

3. O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 17-avgust kundagi "Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida"gi 790-sonli Qonuni.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-noyabr kundagi "Tibbiy profilaktika ishlari samaradorligini yanada oshirish orqali jamoat salomatligini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4891-son Qarori.

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 27-oktabr kundagi "Texnogen, tabiiy va ekologik tUSDagi favqulodda vaziyatlarning tasnifi to'g'risida"gi 455-son Qarori.

6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 12-aprel kundagi "Respublika epidemiyaga qarshi kurashish favqulodda komissiyasi tarkibini va komissiya to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi Qarori.

7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 18-noyabr kundagi "O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi orqali o'tkazish punktlarida chegara, bojxona, sanitariya-karantin, fitosanitariya va veterinariya nazoratini tashkil etish tartibini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 912-sonli Qarori.

8. O'zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmatining 2022-yil 8-sentabr kundagi "O'zbekiston Respublikasi hududiga karantinli, o'ta xavfli va boshqa yuqumli kasalliklarning chetdan kirib kelishi va tarqalishidan muhofaza qilish bo'yicha sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari (0034-22-son SanQ va M)ni tasdiqlash to'g'risida"gi 25-son Qarori.

9. H.B.Saparov "O'ta xavfli yuqumli kasalliklar" "NISO POLIGRAF" nashriyoti 2014-yil.

10. S.E.Umirov, Z.Z.Qodirov, A.A.Mahamatov, S.A.Mirzabaev. "Klinik epidemiologiya" darslik. Toshkent tibbiyot akademiyasi - 2012-yil.

11. B.M.Mamatkulov, X.E.Rustamova. “Jamoada hamshiralik ishi” darslik. Toshkent - 2016-yil.

12. B.M.Mamatkulov. “Tibbiyot statistikasi (Biostatika) asoslari” darslik. Toshkent - 2005-yil.

13. <https://uza.uz/>

14. <https://www.iloencyclopaedia.org/uz/>

15. <https://uz.wikipedia.>



UO‘K 930

FUQARO MUHOFAZASI SOHASINING YARALISH TARIXI

To‘rayev Z.T.

(Favqulodda vaziyatlar vazirligi Shahrisabz “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyi)

Shomansurov S.S.

(Islom.Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti)

***Annotatsiya.** Maqolada fuqaro muhofazasi sohasining yaralish tarixi, qadimgi davrdan to zamonaviy holatgacha bo‘lgan rivojlanish bosqichlari yoritiladi. Fuqaro muhofazasiga bo‘lgan e‘tibor insoniyat tarixida har doim muhim bo‘lib kelgan, chunki inson jamoasi faoliyati davomida xavfsizlik ehtiyoji asosiy omil bo‘lib qoladi.*

***Kalit so‘zlar:** fuqaro muhofazasi, aholi xavfsizligi, harbiy hujumlar, ommaviy qirg‘in qurollar, mahalliy havo hujumidan mudofaa tizimi.*

***Аннотация.** В статье рассматриваются исторические эпохи становления сферы гражданской защиты, от древних времен до современного состояния. Уважение к безопасности всегда было важным в истории человечества, поскольку потребность в безопасности является основополагающим фактором в деятельности человеческого сообщества.*

***Ключевые слова:** гражданская защита, безопасность населения, военные нападения, общее береговые оружие, система местной противовоздушной обороны.*

***Abstract.** The article examines the historical epochs of the formation of the sphere of civil protection, from ancient times to the modern state. Respect for security has always been important in the history of mankind, since the need for security is a fundamental factor in the activities of the human community.*

***Key words:** civil protection, public safety, military attacks, common coastal weapons, local air defense system.*

Kirish. Fuqaro muhofazasi - inson hayotini, uning mol-mulkini va atrof-muhitni tabiiy va texnogen ofatlardan, shuningdek, harbiy mojarolarning salbiy ta‘siridan himoya qilishga qaratilgan tizimdir. Fuqaro muhofazasining ildizlari qadim zamonlarga borib taqaladi. Insoniyat tarixida birinchi navbatda xavf-xatarlar va xavfsizlikka oid tashabbuslar qabilalar darajasida paydo bo‘lgan.

Agar biz tarixga nazar tashlasak, insoniyat ibtidoiy jamoa tuzumi davridayoq odamlarda yovvoyi hayvonlarning hujumlaridan himoya qilish ehtiyoji paydo bo‘lgandayoq o‘zlarini mudofaa qilish uchun turli tadbirlarni qo‘llay boshlaganlar.



MUNDARIJA

| | | | |
|----|--|---|------------|
| 1 | Aripov S., Mamadiyev B.A. | QUTQARUVCHILAR HAYOTI VA SOG‘LIG‘INI MAJBURIY SUG‘URTALASH ISTIQBOLLARI..... | 3 |
| 2 | Xaydarov R.X., Aripov S., Abduganiyev B.Yo. | O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDIGA GIYOHVANDLIK VOSITALARI VA PSIXOTROP MODDALARNI NOQONUNIY KIRIB KELISHINING OLDINI OLISH CHORALARI..... | 10 |
| 3 | Yangiboyev X.N., Turobov F.F. | YONG‘IN-QUTQARUV QISMLARIDAGI ASOSIY YONG‘IN O‘CHIRISH AVTOMOBILLARIDAN YONG‘INLARNI O‘CHIRISHDA FOYDALANISHNI MATEMATIK MODELLASHTIRISH..... | 24 |
| 4 | Sherbayev M.R., Rahmonov M.B. | FAVQULODDA VAZIYATLARDA TABIIY OFATLAR ZARARINI BAHOLASH USULLARINING TAHLILI..... | 29 |
| 5 | Xolmatov E.R. | INKLYUZIV TA‘LIMNI TADBIQ ETISHDA XORIJ TAJRIBASINING O‘RNI..... | 36 |
| 6 | Abdazimov Sh.X., Yangiboyev X.N. | TABIIY OFATLARNING TRANSPORT VA BOSHQA XALQ XO‘JALIGI INSHOOTLARIGA TA‘SIRI..... | 43 |
| 7 | Рашидов Ж.Г., Рашидов Д.Г. | ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОГРАЖДАЮЩИХ КОНСТРУКЦИЙ ЗДАНИЙ ДЛЯ ЗАЩИТЫ ОТ РАДИАЦИОННОГО ВОЗДЕЙСТВИЯ..... | 52 |
| 8 | Abdug‘opurov E.G‘., Saidkasimova N.S. | EPIDEMIOLOGIK FAVQULODDA VAZIYATLARNI YUZAGA KELTIRUVCHI KASALLANISHLAR VA ULAR TARQALISHINING OLDINI OLISH CHORA-TADBIRLARI..... | 57 |
| 9 | To‘rayev Z.T., Shomansurov S.S. | FUQARO MUHOFAZASI SOHASINING YARALISH TARIXI..... | 69 |
| 10 | Xusanova S.I., Sultonov R.B. | AHOLINI FAVQULODDA VAZIYAT XAVFI YOKI YUZAGA KELISHI TO‘G‘RISIDA XABARDOR QILISHNI TASHKIL ETISH..... | 76 |
| 11 | Sherbayev M.R., Yuldashev R.N. | YETAKCHI XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI ASOSIDA IQTISODIYOT OBYEKTлари BARQARORLIGINI OSHIRISH..... | 82 |
| 12 | Ergashev S.A. | TASHKILOTLAR HAYOT FAOLIYATI BARQARORLIGINI TA‘MINLASH UCHUN FAVQULODDA VAZIYATLAR XAVFINI KAMAYTIRISH USULLARI..... | 90 |
| 13 | Maxmudova M.F. | FAVQULODDA VAZIYATLAR YUZAGA KELGANDA AHOLINI EVAKUATSIYA QILISH UCHUN TRANSPORT TA‘MINOTINI TASHKIL ETISH..... | 96 |
| 14 | Кулумбетов Б.П., Бакиев М.Р., Хасанов Х.Х. | ЛАБОРАТОРНЫЙ АНАЛИЗ ГРУНТОВ В ЗОНАХ ТРЕЩИН КАНАЛА БУСТАН..... | 101 |
| 15 | Sabirov E.E., Karimov F.K. | “AUER BD-96” RUSUMLI SIQILGAN HAVOLI APPARATLAR BILAN NAFAS OLISHGA YAROQSIZ MUHITGA TAXMINIY ISH VAQTINI HISOBLASH USULI..... | 110 |
| 16 | Sabirov E.E., Karimov F.K. | GAZ VA TUTUNDAN HIMOYA XIZMATI GURUHIGA QUTQARUV ISHLARI UCHUN QURILMA ISHLAB CHIQISH..... | 117 |
| 17 | Abdug‘opurov E.G‘. | SEL VA SUV TOSHQINLARI NATIJASIDA YUZAGA KELUVCHI EPIDEMIOLOGIK VAZIYATLARDAN AHOLI VA HUDUDLARNI MUHOFAZALASH..... | 123 |
| 18 | Abdulxayev T.D. | KIMYOVIY MODDALARNI SAQLASHDA SODIR BO‘LADIGAN FAVQULODDA VAZIYATLARNI OLDINI OLISH..... | 131 |